# Ta’limning yangi pog‘onasiga yo‘naltirish

Hayot dovonlar osha harakat bo‘lgani kabi ta’lim jarayonining ham yuksak pillapoyalari bor. Unga intilish kasb tanlash orqali bo‘lishi aniq. Ma’lum bir maqsadni o‘z oldiga qo‘yib unga erishish uchun to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq va maslahat zarur.

Joriy yilning 5 may kuni institutning “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakultetida akademik litsey o‘quvchi – yoshlari bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Uchrashuvda institut qoshidagi akademik litseydan 110 nafar va “International house in Toshkent” akademik litseyidan 120 nafar o‘quvchi – yoshlar ishtirok etishdi. Akademik litsey va kasb hunar kollejlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor Abdusaid Isakov, “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti dekani Erkin Farmonov, fakultet professor – o‘qituvchilaridan Berdirasul Xudayarov, Ismatulla Gubaevlar o‘quvchi – yoshlarga institut tarixi va hozirgi kundagi hayot faoliyati hamda bu institutda ta’lim olib qaysi sohaning egallashlari mumkinligi to‘g‘risida ma’lumot berishdi va institut bo‘ylab sayohat uyushtirishdi.

O‘quvchi – yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga to‘liq javoblar olib, institut to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.

**“QXM” fakulteti ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari Ikrom Raximov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.**